

MUHAMMAD NIYOZ NISHOTIYNING “XUSNI DIL” DOSTONIDA TA’LIMIY-
AXLOQIY QARASHLAR

Qolandarova Dilafruz Karimovna

Urganch Davlat Pedagogika Instituti

“Boshlang‘ich talim metodikasi” kafedrası

o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xorazmlik shoir Muhammad Niyoz Nishotiy asarlaridagi ta’limiy-axloqiy qarashlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarbiya, ta’lim, pedagogik faoliyat, darslik, axloq, ma’naviyat, xulq, odob.*

Аннотация. *В данной статье освещены просветительские и нравственные взгляды хорезмийского поэта Мухаммада Нияза Нишати.*

Ключевые слова: *воспитание, образование, педагогическая деятельность, учебник, мораль, духовность, поведение, манеры.*

Abstract. *In this article, the educational and moral views of the Khorezm poet Muhammad Niyaz Nishati are covered.*

Key words: *upbringing, education, pedagogical activity, textbook, morality, spirituality, behavior, manners.*

Ilmsiz amal qiladigan kishi islohdan ko‘ra ko‘proq fasod qiladi.

Ilmni shunday talab qilingki, ibodatga zarar yetmasin.

Ibodetni shunday qilingki, ilmga zarar yetmasin.

Hasan Basriy.

Jahon adabiyotshunosligida e’tirof etilgan haqiqatlardan biri shundaki, badiiy adabiyotning inson aql-zakovatiga, ijtimoiy muhitning yuksalishiga, xalqning ta’limiy-axloqiy qarashlariga hamda millat ma’naviyatiga ta’siri beqiyosdir. O’tmishda yaratilgan ko‘plab durdona asarlarimiz zamirida millatning va kelajak avlodning ma’naviyatini shakllantirish, boyitish hamda ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash asosiy g‘oya hisoblangan.

Adabiy merosi «Husnu Dil» dostoni, «Qushlar munozarasi» manzumasi hamda 1500 misra she’r — 38 g‘azal, 14 muxammas, 1 qasida va musaddasdan iborat. Lirikasi dunyoviy muhabbat mavzuida. Unda shoir o‘z kechinmalari, zamona xaqidagi fikr-mulohazalarini ifodalagan, vafo, sadoqat, go‘zallik va nafosatni kuylagan. Shu jumladan o‘zbek adabiyoti tarixida Nishotiy taxallusi bilan ijod qilgan, o‘z asarlarini o‘zbek tilida yaratgan xorazmlik shoir Muhammad Niyoz Nishotiydir, u o‘z zamonasining yetuklik va jo‘shqinlik shoiridir.

Shoir ijodi bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan”

1.Matnshunoslik yoʻnalishi.Matnshunoslik izlanishlari mahsuli sifatida Nishotiy asarlari bir necha marta nashr etildi.Ushbu ishlar Nishotiy ijodi bilan oʻzbek kitobxonini tanishtirishda muhim.

2.Adabiyotshunoslik yoʻnalishi.Nishotiy ijodining ilmiy tadqiqini sarhisob etilgan.

U oʻzining gʻazal va muxammaslarida insoniy goʻzal his-tuygʻularni tarannum etdi, sevgi, muhabbat-vafo va sadoqat motivlarini hayajon bilan kuyladi. Shu bilan birga oʻz davri,yashagan muhti haqidagi fikr qarashlarini ham ifoda qildi:

“Xorazm purrazmdin va mavludi vasliysi ul diyori xushbazmdin demoqchining dostoni:

Bor edi Xorazm diyori-yerim,
Ondin edi yaxshi-yomon gavharim.
Dema oni bore di jannat misol,
Yetmagusi vasfigʻa vahmu xayol

Xorazm diyorining goʻzalligi,uning tili,urf-odatlarini ,bu xalqning oʻziga xos anʼanalarini,jannatmisol oʻlkaligini,uningdek jannatga yetish amri maholligini taʼriflaydi.”

Toʻbi oʻlub bogʻida har bir nihol,
Obu havosi edi jannat misol.
Gʻoblari qalbida bor edi bogʻ,
Togʻlari siynasida lola dogʻ.

Xorazm goʻshasining bogʻlarga boyligini,ob-havosi,iqlimi jannatiyligini, **Gʻob** – yaʼni hokim,davlat boshliqlarining qalbi nav-niholday, bogʻ-rogʻ kabi bepoyonligini davlat tinchlihi,farovonligi uchun qaygʻurishini ifodalaydi. Bu vohaning togʻlari lolazor kabi qip-qizil ekanligini bayon qiladi.

Telbarotib aqli kuli gul isi,
Har soridin lola-yu sunbul isi.
Qushlar anga toyiri qudsiy boʻlub,
El oila har qaysining unsi boʻlub.
Chashmalari har biri sansabil,
Erdi giyohi xush anga zanjabil.
Yer anga mushkinu havo mushbor,
Yoz-u qishi anda hamisha bahor.

“ Soʻz degan bir muhazzirai dushiza va bir masturai pokizadir” bobi bayoni.

Soʻz bu munosabat demak. Tilimizdan chiqqan har bir kalom bizning oʻzgalarga va oʻzgalarning bizga boʻlgan munosabatini belgilaydi. Hazrati Navoiy “ Maʼdani inson gavhari soʻz durur,gulshani odam samari soʻz durur ”, yoki Gavhari odam suxan ast, gul suxani pursamari odam ast deya soʻzni insonning soʻzlagan soʻzini gavharga oʻxshatgani bejiz emas.Soʻzning tarixiy-madaniy xizmati beqiyos, tilning, soʻzning imkoniyatlari cheksizdir.

Soʻz duridur javhari jondin aziz,

Balki erur ikki jahondin aziz.

Olamaro har neki topti sabot,

Yo neki itloq angodur koinot.

Shoir oʻzining ustози deb bilgan Alisher Navoiyning soʻz haqidagi hikmatli soʻzlaridan boshlaydilar. Zero, soʻz inson kamolotini belgilaydi.

Soʻzdin erur borchasigʻa toru pud,

Xoh odam boʻlsuni xohi vujud.

Soʻzdin erur har tanaro jon dogʻi,

Jon demayin gavhari iymon dogʻi.

Soʻz biladur kufr ila islom aro,

Farq bil inson bila anʻom aro.

Har kishikim kufrigʻadur muʻtari,

Oʻz tilidin kufrigʻadur muttasif.

Oʻzbek adabiyoti tarixidagi talantli shoir Muhammadniyoz Nishotiy XVIII asrdagi ijtimoiy muhitni sheʼriy devoni yaʼni «Husnu Dil» dostoni orqali yoritgan.

Shoir asarida oʻsha davrdagi qator sotsial guruhlarining turli illatlari — xudbinlik, maqtanchoqlik, jaholat va hokazolarni qattiq tanqid qiladi. Bu asar «Husnu Dil» dostonidan oldin yozilgan boʻlsa ajab emas. «Qushlar munozarasi»ning aniqlanishi adabiyotimiz tarixini yanada boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nishotiy. Husnu Dil. Lirik. -T.: 1967.
2. Nishotiy. Qushlar munozarasi. Journ. "Guliston". -1970. № 1.
3. Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy. — T.: 1976.
4. Valixojayev B. Oʻzbek epik poeziyasi tarixidan. — T.: 1975.
5. Abdullaev V. Nishotiy. Kitobda: Saylanma. — T.: 1982.
6. " Oʻzbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi " Sharafiddinov O.II tom.-Toshkent, OʻzDav nashriyoti. 1945.
7. Abdullayev V. Xokisor va Nishotiy. -Samarqand: SamDU nashriyoti, 1960.
8. Oʻzbek adabiyoti. II tom. Zohidov V. -Toshkent, 1959.